

O'ZBEKISTON DON SANOATI TARIXI HAQIDA MULOHAZALAR

Gulnora Uktamovna Nurullaeva

Turon universiteti, tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolda O'zbekiston hududida keyingi uch asr davomida don sanoati bo'yicha olib borilgan ishlar haqida so'z boradi. Don yetishtirishning sanoat darajasiga ko'tarilishi, don sanoatining rivojlanishiga paxta yakkahokimligining ta'siri o'rganilgan. Bu sohadagi xato va kamchiliklar, rus chorizmi hamda sovetlar hukmronligi davrida don ekinlari yetishtirishning keskin kamaytirilishi, O'zbekiston mustaqilligi yillarida don mustaqilligiga erishish maqsadida don seleksiyasi, sug'oriladigan va lalmi yerlarda don yetishtirish, ularni qayta ishlash, don mahsulotlarini ishlab chiqish sohasida olib borilgan islohotlar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *don, don sanoati, donni saqlash, donni qayta ishlash, don mahsulotlari, tegirmonlar, paxta yakkahokimligi, "O'zdonmahsulot" aksionerlik kompaniyasi, islohotlar.*

Abstract: *The article describes the work done in the grain industry in Uzbekistan over the next three centuries. The rise of grain farming to the industrial level and the influence of the cotton monopoly on the development of the grain industry have been studied. Errors and shortcomings in this area, during the period of Russian rule and Soviet power, a sharp reduction in the production of grain crops, during the years of independence of Uzbekistan, in order to achieve grain independence, grain selection, grain growing on irrigated and rainfed lands, reforms in the field of their processing and development were discussed grain products.*

Key words: *grain, grain industry, granary, grain processing, grain products, mills, cotton monopolies, Uzdonmakhsulot joint-stock company, reforms.*

Kirish (Introduction). Respublikamiz hududida don mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Aynan don sanoatining rivojlanish tarixi esa nisbatan yaqin o'tmish bilan bog'liq tarixdir. Don sanoati bu – faqat don mahsulotlarini yetishtirish emas, balki donni qabul qilib olish, saqlash va uni qayta ishlash sohalari kabi sohalarni ham qamrab oladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekiston hududida don va don mahsulotlarini tayyorlashni markazlashgan holda tashkil etish va hukumat miqyosidagi e'tibor qaratilishi va butun bir tarmoq sifatida qaray boshlanishi XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrga kelib don mahsulotlarini qayta ishlash uchun tegirmonlar ko'rinishi ham takomillashib bordi. XIX asrdan boshlab Turkiston hududida suv bilan ishlaydigan tegirmonlar bilan birga bug' bilan

ishlaydigan tegirmonlardan foydalanila boshlandi. 1885 yil birinchi marta o'z davrining mukammal tegirmoni hisoblangan "Toshkent-non shahri" deb nomlangan tegirmon ishga tushiriladi. Birinchi bug' bilan ishlaydigan katta hajmda donni qayta ishlaydigan tegirmoni esa 1910 yilda ishga tushiriladi.

Ushbu masalalarga O'Rahmatov N.Abdullayeva, I.Najmiddinov, A.Ishmetov, M.Sodiqov, S.Burxonova kabilarning yondashuvlari diqqatga sazovor.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Temir yo'l stansiyalari oldida don mahsulotlarini qabul qilib oluvchi punktlar ishga tushirildi. Bunday bo'limlar va punktlar "Заготзерно" tashkilotining tuzilishiga asos bo'ldi. Donlarni qabul qilishni rag'batlantirish maqsadida 1924 yilda sotuvdan soliq olish bekor qilindi. 1956 yilda "Уззаготзерно", "Азияхлеб" kontorasi va "Узглавмука трести"ni tarkibiga qamrab olgan Non mahsulotlari bo'yicha vazirlik tashkil qilindi. Vazirlik yangi tuzilgan vaqtda 73 ta tayyorlov punktlari, 3 ta ombor bazalari, 3 ta urug' saralash omborlari 3 ta yorma zavodi, 15 ta un va kepaklar chiqaradigantegirmonlar bor edi. Yuqori sifatli un chiqaradigan tegirmonlar Toshkent, Samarqand, Andijon, Quva va Farg'onada o'rnatilgan edi. Qarsh, Buxoro, Jizzax, Kattaqo'rg'on, Urganch, Nukus, Termiz, Samarqandda don mahsulotlaridan un olgandan keyin qoladigan qoldiqlarini qayta ishlaydigantegirmonlar o'rnatildi. Guruch, javdar, bug'doy yormasi Toshkent va Samarqanddagi yorma tayyorlash zavdolaridan chiqarilardi. Tegirmonlar qoshida omixta yem ishlab chiqarilardi.

Ko'zga ko'rinayotgan o'zgarishlarga qaramasdan don sanoati tizimidagi kamchiliklar juda ko'p edi. Aholining un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji 1956 yilda 1 million 300 ming tonnani tashkil etishiga qaramasdan, un mahsulotlarini chiqarilishi bor yog'I 360 ming tonnani tashkil qildi. Bu 28 foiz ta'minlanish ko'rsatkichini beradi.

1961 yil Non mahsulotlari bo'yicha vazirlik Zahiralar vazirligi deb qayta tashkil etiladi. 1970 va 1985 yillarda ham vazirlik qayta tuzildi. Vazirlikdagi o'zgarishlar tizimni rivojlantirishga yordam bera olmasdi. Chunki, sanoatning monopoliyalashuvi tarixiy faktlarda isbotlanganki, shu sohaning oqsashiga olib keladi.

1981-1985 yillar o'rtasida Quva, Navoiy, Farg'ona va Uchqo'rgonda umumiy hajmi kuniga 1300 tonna unni qayta ishlagan, 240,2 ming tonna sig'imli elevatorga ega tegirmonlar ishga tushdi. Shu yillarning o'zida 11 ta tegirmon qayta ta'mirlanib ularning ma'naviy eskirganqismlari yangilandi. Bundan tashqari, boshqa un zavodlarida 13 ta un tegirmoni va 5 ta guruch tegirmoni qayta jihozlandi. va ularning quvvatiga mos ravishda kuniga 300 va 230 tonna donni qayta ishlashga erishildi.

Nihoyat, 1991 йилда uzoq kutilgan, necha-necha ajdodlarimiz armoniga aylangan mustaqillikka erishildi. Respublika bo'yicha mavjud tegirmonlar soni 60

taga yetdi. 14 ta tegirmon Shvetsariyaning “Byuller AG” firmasi texnologiyasi asosida qayta jihozlandi. Yangi asbob-uskunalarining Afzal tomoni shunda bo‘ldiki, endi ko‘p miqdorda yuqori navli un ishlab chiqarish bilan birga 10 %gacha makaron uni ham ajratib olish olish imkoni yaratildi.

Prezidenti 1992 yil 6-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi PF-334-sonli farmoniga fasosan O‘zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari vazirligi tugatilib, uning negizida O‘zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari (“O‘zbekdonmahsulot”) davlat konserni tashkil etildi.

O‘zbekiston korxonalarida unni 9 ta navi ishlab chiqailadigan bo‘lgandi. Soha mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra bu navlarning orasidan “O‘zbekiston” navi boshqalariga qaraganda o‘zgacha ahamiyat kasb etgan ekan. O‘ziga xos biologik xususiyatlariga ega, ozuqabobligi juda yuqori deb ta‘riflanayotgan “O‘zbekiston” navi tarmoq mutaxassislarining ijodiy izlanishlari natijasida kashf etilib, keng ko‘lamda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan ekan. Buni qarangki, istiqlol bergan erkin yaratuvchanlik faoliyatining ilk mevasiga o‘zbek elining bu kun dunyo bo‘ylab jaranglayotgan nomiga hamohang ravishda O‘zbekiston deb nom berilgan edi.

1994 yil 22-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-840-sonli farmoniga muvofiq “O‘zbekdonmahsulot” davlat konserni “O‘zbekdonmahsulot” davlat aksionerlik korparatsiyasiga aylantirilgan. 1995-1998 yillar davomida 13 ta yorma sexlari, 30 ta ozuqa yem va 52 ta un zavodlari xususiylashtirdi. Bu korxonalar yiliga 300 ming tonnadan ortiq yorma, 3 million tonnadan ortiq ozuqa yem va un mahsulonlarini ishlab chiqarib, aholi ehtiyojlarini qondirdi.

“O‘zdonmahsulot” korparatsiyasi boshqarmalari mutaxassislarining sa‘y-harakatlari bilan tarmoqqa xorijiy sarmoyalar jalb qilinib, bir nechta qo‘shma korxonalar tashkil etildi. Jarqo‘rqon tumanida bir necha kunda 150 tonna donni qayta ishlashga quvvati yetadigan tegirmon kompleksiga ega “Alpomish” o‘zbek-turk qo‘shma korxonasi ishga tushirildi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Markaziy Osiyo hududida rus chorizmi hukmronligi boshlanishi don sanoati faoliyatida tub burilish bo‘ldi. Donni saqlash va qayta ishlash tizimini to‘liq nazorat qilish uchun 1867- yilda Toshkent shahrida Nazorat idorasi tuziladi. Sovetlar hukmronligi davrida don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash va unga qayta ishlov berish tizimi monopoliyalashtiriladi. Joylardan don mahsulotlarini qabul qilib olish uchun bo‘limlar ochildi. O‘rta Osiyo hududidagi ekin yerlariga ekiladigan donli ekinlar o‘rniga Rossiya ma‘murlari paxta ekishni ma‘qul topdilar. Paxtadan keladigan daromadning asl egalari ham ma‘lum edi.

Zahmatkash xalqning yil bo‘yi qora terga botib yetishtirgan paxtasi Rossiya sanoati uchun arzongina xom ashyo bo‘lishini anglagan rus hukmdor doiralari

“g’irrom” o’yinlari bilan xalqni eza oshlashdi. Eng avvalo qishloq xo’jaligida bir talay islohotlar o’tkazildiki, buning oqibatida dehqon o’z yeridan, dalasidan mosuvo bo’ldi. Barcha yerlar Chor hukumati ixtiyoriga o’tdi. Bu dalalarda ishlaydigan dehqonlar Rossiya foydasiga soliq to’laydigan bo’ldilar. Paxta ekiladigan yerlar asosan don ekinlari – bug’doy, sholi, arpa, makkajo’xori maydonlarini keskin qisqartirish hisobiga kengaytirildi.

Paxta yetishtirishga zo’r berish imperiyaning chet ellarga sarflaydigan 70 million oltin pulini tejashga yordam berdi, to’qimachilik, gazlama sanoatining gurkirab o’sishiga turtki bo’ldi. Biroq, rus to’ralarining cho’ntagi semirgan bir paytda mehnatkash o’lka aholisining kosasi oqarmadi. Negaki paxtaning narxi nihoyatda past edi. 1913 yilda paxta narxi 50 foiz oshirilganda mustamlaka ma’muriyati eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bahosini 400-500 foizga oshirdi. Nonning narxini 6 martaga ko’tarib qo’ydi.

O’lkada amalga oshirilayotgan bunday adolatsiz siyosat chor hukumati ag’darilgandan keyin, ya’ni 1917 yildan keyin Sovetlar hokimiyati davrida ham o’zgarmadi. Avval chor hukumati jabr-sitamlaridan holdan toygan o’lka xalqi kommunistik diktatura zug’umlari ostida qoldi. Dehqonga qayishadigan mahalliy o’ziga to’q odamlar, zamindorlar ham quvg’inga uchradilar. Kolxozlashtirish siyosati bahonasida ularning yer-suv, mol-mulklari tortib olinib, o’zlari “quloq” sifatida Rossiyaning yashash uchun deyarli sharoiti bo’lmagan yerlariga badarg’a qilindilar. Endi yer butunlay eng so’ngi bo’lagigacha davlatniki bo’lib qoldi. Yeridan mosuvo bo’lgan dehqonlarni dehqon deyish mumkinmidi endi. Ular kolxozlarga birlashib, hamon yer haydar, ekin ekar, hosil ko’tarardilar. Ammo ular baribir dehqon emasdi, bironing yeriga yollanib ishlaydigan batrak yoki mardikor edi xolos. Dehqon avvallari yerga butun mehrini berardi. O’zining yagona boquvchisi bo’lgan yerga nima ekishni, qachon ekishni bilardi. Yerdan bunday begonalashish jarayoni dehqonni iqtisodiy jihatdan nochor ahvolga solibgina qo’ymay, balki uning insoniy g’ururini ham yerparchin qildi.

Shu tarzda O’zbekiston xalqi 30- yillardagi qahatchilikni, urush yillarini azob-uqubatini boshidan kechirdi. Xalq bunday erksizlik, huquqsizlik ichra og’ir ahvolda yashadi. Adolatsizlikka qarshi bosh ko’targan millat farzandlarining chekiga qanday kulfatlar tushganini, qanday qismatga ro’baro’ qilingani ham tarixdan ma’lum.

Sovetlar o’z manfaati ustunligini o’ylab olib borilgan siyosatining oqibatida nonning, don mahsulotlarining aksariyat qismi O’zbekistonga chetdan keltirilardi. Shuda ham vaziyat boshqaruvini qo’ldan chiqarib yubormaslik uchun markaz rahbarlari tez-tez o’yinlar qo’llab turishdi. Urushdan keyingi yillarda, hatto 60-yillarda ham nonga navbatga turish holatlari qaytdi. Xolbuki, urush tugaganiga 20 yil bo’lgan edi. Dehqonni zamindan ajratgan jamiyat xor bo’ladi, deb bejizga

aytishmagan. Sobiq Ittifoqidagi sotsialistik jamiyatning inqirozi XX asr oxirlariga kelib inqirozga yuz tuta boshladi.

Aholini qanday bo'lmasin non va non mahsulotlari bilan ta'minlash davlatning oldida turgan asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu vazifasiga to'liq e'tibor qaratmaslik oqibati yomon bo'lishini markazdagilar yaxshi bilardi. Don sanoatidagi kamchiliklarga qaramasdan bu sohada ham ozmi-ko'pmi ishlar olib borildi.

A.Meyliboyev muharrirligida nashr qilingan "Mustaqil yurt g'allasi" to'plamida don sanoatidagi mustaqillik sharofati bilan qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlar faktlarda quyidagicha keltirilgan:

"Dalil va raqamlar:

- 1995 yilda don bo'yicha davlat buyurtmasi 50 foizgacha qisqartirildi. Yaqin yillar ichida uni butunlay bekor qilish vazifasi qo'yilgan.
- Don hosilining xarid narxini jahon narxlari darajasiga bosqichma-bosqich yetkazish 1995 yildan boshlandi.
- 1994 yildayoq 1993 yilga nisbatan respublikada fermer xo'jaliklari ekinzorlari maydoni 2,7 baravar ortib, ularda don yetishtirish 3 baravarga ko'paydi.
- Donchilikni rivojlantirish, unga agroservis xizmati ko'rsatish, yetarli miqdorda texnika va ehtiyot qismlar bilan ta'minlash yo'lida bugungi kunda mamlakatimiz xo'jaliklarida mashina-traktor parklari – MTPlar tashkil etilib, ular Keys kombaynlari hamda "Magnum" traktorlari bilan boyitildi.
- Respublika Moliya vazirligi qoshida tashkil etilgan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob ishlari bo'yicha maxsus jamg'arma 1999 yilning o'zida birgina g'alla uchun 48 mlrd. 600 mln so'm mablag' ajratdi.
- 2002 yilda aholi tomorqalarida ham yetishtirilgan g'allani qo'shib hisoblaganda mamlakatimizda 5 million tonna atrofida don yetishtirildi.
- 2003 yil ham O'zbekistonda g'alla yili bo'ldi. Hosil xirmonlarimiz 5 million tonnadan oshib ketdi".

Donni xarid qilish, saqlash va qayta ishlabchiqarish boshqaruvni tubdan tubdan takomillashtirib borish, ortiqcha oraliq tuzilmalarni tugatishga erishish, don sanoati tarmog'iga bozor munosabatlarini talablarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish, sanoatda xususiy lashtirish va investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini faollashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6-avgustdagi 376-sonli qaroriga asosan "O'zbekdonmahsulot" davlat aksionerlik korporatsiyasi ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "O'zbekdonmahsulot" aksionerlik kompaniyasiga aylantirilgan.

Xulosa. Bugungi kunda “O‘zbekdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi tizimida 34 ta korxonalar mavjud. “O‘zbekdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi tizimidagi korxonalar 44 ta un ishlab chiqaruvchi tegirmon, 48 ta urug‘lik sexi, 43 ta omixta sexlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Tizimda xususiylashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar o‘z samarasini bermoqda.

Respublikamiz ichki iste‘mol bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash, mahsulot turlarini kengaytirish, aholi sifatli non va non mahsulotlari, makaron va yorma mahsulotlari bilan ta‘minlash maqsadida “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalar tomonidan tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 6-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Don mahsulotlari (“O‘zbekdonmahsulot”) davlat konserni tuzish to‘g‘risida» PF-334-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 22-apreldagi “O‘zbekdonmahsulot” davlat konsernini “O‘zbekdonmahsulot” davlat aksionerlik korporatsiyasiga aylantirish to‘g‘risida»gi PF-840-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 25-maydagi “Don va donni qayta ishlash mahsulotlari hisobini yuritish tizimini takomillashtirishga, ularni saqlanishi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi VMQ-95-sonli Qarori.
4. Mustaqil yurt g‘allasi. (tuzuvchi O‘tkir Rahmat). Toshkent: O‘zbekiston, 2003. – 134 b.
5. Abdullayeva N. Dunyo obodligi sizlardan. Тошкент: “Toshkent islom universiteti” nashriyoti, 2001.
6. Nurullayeva G. Non mahsulotlarining yaratilish tarixi va uning insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni // O‘zMU xabarlar, 2024, № 1/5/2. B. 12-15.
7. Xaitov R.A., Zuparov R.I., Radjabova V.E., Shukurov Z.Z Don va don mahsulotlarining sifatini baholash hamda nazorat qilish. Toshkent: Universitet, 2000. – 255 b.
8. Нажмиддинов И.Х, Ишметов А.Ж. и др. История отрасли хлебопродуктов в Узбекистане. Ташкент: Шарк, 2001. – 125 с.
9. “O‘zdonmahsulot” aksionerlik kompaniyasining 2003 yilga mo‘ljallangan biznes rejasi
10. Sodiqov M., Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Тошкент: «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2016. – 496 b.